

**TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA
VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI
BO‘YICHA MA’LUMOT**

*2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*


Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma‘lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarsiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4

37 621



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

5073



Oilaviy korxonona

206



Unitar korxonona

6222



Xususiy korxonona

47




Aksiyadorlik jamiyati

319




Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




□ 2022 ■ 2023


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-dekabr oylarida)





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 foizga oshdi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish

■ O‘rmon xo‘jaligi


■ Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni
(1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonalar va
tashkilotlarning
umumiy soni o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 7,9 foizga
oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



463



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

9 287



Ishlab chiqarish sanoati

57



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

191




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 9 998 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 %ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 8,3 %ga (jami sanoatdagi ulushi 92,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 1,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 4,6 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 0,4%ga kamaygan (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 9,8 %ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) oshgan.




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,0 foizga oshdi**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




7,0 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




8,3 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




10,0 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan **21,0 foizga oshdi**



Xususiy korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 4 122 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 %ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 10,6 %ga (jami qurilishdagi ulushi 53,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 23,7 %ga (jami qurilishdagi ulushi 9,4 %), korxonalar sonining ortirishidir, shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 0,9 %ga (jami qurilishdagi ulushi 37,2 %) kamayishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 16 561 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 %ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 10,0 %ga (jami savdodagi ulushi 66,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 24,6 %ga (jami savdodagi ulushi 26,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 16,4 %ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

870



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

31



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

32



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



404

yashash bo'yicha xizmatlar



3 731


Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2023- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 4 135 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,0 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 10,1 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 90,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 10,0 %ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 9,8 %) o'sishidir.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 5 564 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 668 taga yoki 13,6 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 073 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 533 taga yoki 11,7 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 852 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 189 taga yoki 18,2 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra 40 634 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 978 taga yoki 14,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 37 621 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 509 taga yoki 13,6%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5553 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 478 taga yoki 7,9 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, 1 724 tani tashkil etib, ulardan 1 642 tasi yoki 95,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 215 taga yoki 15,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 238 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Toshkent viloyati	1724	740	984
Oqqo'rg'on t.	21	6	15
Ohangaron t.	90	33	57
Bekobod t.	10	6	4
Bo'stonliq t.	72	37	35
Bo'ka t.	16	5	11
Quyichirchiq t.	53	26	27
Zangiota t.	236	87	149
Yuqorichirchiq t.	129	56	73
Qibray t.	183	79	104
Parkent t.	30	11	19
Piskent t.	29	12	17
O'rta Chirchiq t.	107	37	70
Chinoz t.	31	13	18
Yangiyo'l t.	103	34	69
Toshkent t.	91	50	41
Nurafshon sh.	80	30	50
Olmaliq sh.	58	18	40
Angren sh.	113	69	44
Bekobod sh.	33	21	12
Ohangaron sh.	53	25	28
Chirchiq sh.	111	61	50
Yangiyo'l sh.	75	24	51

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Committee for Statistics of the Republic of Uzbekistan. The header features the national emblem, the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI', and the UZSTAT logo. Navigation links include 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A dropdown menu is open over the 'INTERAKTIV XIZMATLAR' link, listing options: 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The main content area is divided into three columns: 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics) with links for 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'; a central form for 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' with fields for 'STIR kodini kiriting' and 'Rasmdagi kodni kiriting', and a 'Qidiruv' button; and 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) with links for 'Aholini ro'yxatga olish 2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrarni yuritish bo'limi

Tel.: (71) 202-86-83